

## YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Butayeva Xurshida Yuldashovna

Yoshlar ishlari agentligi Yangihayot tumani  
mahalladagi yoshlar yetakchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7198828>

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda yurtimiz yoshlariga berilayotgan imkoniyatlar hamda ularni qo'llab-quvvatlashda yoshlarga oid davlat siyosatining keng ko'lamli islohotlariga oid fikr- mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlari: yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim-tarbiya, yosh avlod.

Yoshlar siyosati jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida turli mexanizm, uslub va strategiyalarni ishlab chiqishni hamda izchil ravishda amaliyotga tadbiiq etishni taqozo etadi.

Davlatdagi ijtimoiy barqarorlik ko'p jihatdan yoshlarning barcha qatlamlariga yo'naltirilgan kuchli ijtimoiy himoyaga, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yetarli shart-sharoit yaratilganiga bog'liqdir.

O'zbekiton - yoshlar mamlakati. Shu bois, yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor qaratiladi. eng avvalo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari doimiy takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. Shuningdek, yoshlarning bepul umumiy ta'lim olish huquqining kafolatlangani ham e'tiborga molikdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo'lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda bu borada qator qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishda, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishda yangi tizimni shakllantirdi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan- yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslarini alohida ta'kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e'tibori, ayniqsa, ta'lim islohotlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu

islohotlarning yutug'i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Yana bir quvonarli xabar shundaki, ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yildan boshlab magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshiriladi.

Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlar yosh avlodni ertamizning munosib davomchilari etib tarbiyalashda yorqin istiqbollarni ochadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6017-son. – : 2020
2. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori. – : 2021
3. Shavkat Mirziyoyev. Asarlar. "1-Jild. Milliy Taraqqiyot Yo'limizni Qatiyat Bilan Davom Ettirib, Yangi Bosqichga Ko'taramiz".